Фразеология, лингвистларнинг ҳамжихат фикрларига кўра, тилнинг ўзига хос ва миллийликка - асосланган соҳаси ҳисобланади. ФБнинг ўзига хослиги кўп ҳолларда унинг тасвирийлигида (образлигида) "сақланиб қолувчи" экстралингвистик омиллар билан асосланади. (В. М. Мокиенко ва бошқалар). Фразеологик заҳира - бу нафақат тил, балки ҳар бир халқнинг маданий - тарихий бойлигидир” [5,174]. ФБ орқали тадқиқотчилар халқ – тил эгалари ҳақида маълумотлар олиши мумкин. Фразеологик бирликнигина билиш камлик қилади, унинг ортида нима борлигини билиш, уни мамлакат маданияти, халқ тарихи билан боғлаган ҳолда кўриб чиқиш керак. Тилнинг ижтимоийлиги унинг жамғариш (аккумулятив) вазифасида намоён бўлади. ФБнинг жамғариш вазифаси шундан иборатки, уларда аجدодлар томонидан тўпланган ва авлодлар томонидан мустаҳкамланган халқнинг жамоа тажрибалари, жамият ҳаётий фаолиятининг моддий шароитлари, унинг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий таркиби, ахлоқ-одоб ва эстетик қоидалари мужассамланади [1,169-175]. Бу вазифа ФБнинг тарих ва маданият билан алоқаси асосида ётади. Айнан шу вазифа семантикада намоён бўлади. Маданият элементларини ўрганиш зарурияти олимлар, масалан, А. А. Потебня [7,56] ва хориж олимлари Ю. Найда[3], Д. Гамперц [4] ва бошқаларнинг ишларида ҳам таъкидлаб ўтилади. ФБ маъноларининг ўзига хослиги кенг кўламдаги умумлашув, чуқур маълумотга эгалик, кўп ҳолларда миллий-маданий семантика билан таърифланувчи коннотативлик, фразеологик тимсолнинг ўзига хослигидан иборат. Р.Ладо ва Ч. Фриз фикрига кўра, тилнинг лексемалар, идиомалар, мақоллар каби бирликлари шундай маъно компонентига эгаки, у фақат шу тил маданиятига хизмат қилувчи тил эгаларигагина тушунарли. Ҳақиқатан, ФБ сўз каби, тил эгаларини, бир томондан ибора таркибининг мантикий маъносини белгилашга, бошқа томондан эса ушбу иборанинг қўлланилиш чегаралари, унинг стилистикаси, маълум бир ҳаётий вазиятлар билан алоқаси, халқ маданияти ва тарихий ҳодисаларни асословчи маълумотларнинг аниқ тўпламини англашга чақиради. Бу маълумотлар тўпламини Е. М. Верацагин ва В. Г. Костомаров ФБнинг маданий-тарихий асоси (фони) сифатида таърифлайди [2,112]. ФБ маъноси тарих, география, турмуш тарзи, яъни, халқ маданиятини кўрсатувчи, кенг маънодаги сўз, миллий - маданий компонент ҳисобланади [8,11]. ШИКН компонентли ФБларнинг миллий хусусиятларини ўрганиш давомида “локал бўёқдорлик” атамасидан фойдаланамиз. Локал бўёқдорликни англаш маданий-тарихий асос тушунчасига ва миллий-маданий компонентга асосланади. Яъни, урғу унинг экстралингвистик асосланганлиги томон силжийди, кўриб чиқиладиган ФБнинг локал бўёқдорлиги халқнинг моддий ҳолати, географияси, мамлакатлар ва уларнинг тарихи, маданияти, турмуш тарзини акс эттириши воситаси сифатида талкин этилади. Локал бўёқдорликни тадқиқ этишда ўрганиладиган ФБ семантикаси бир бурчак остида - ФБнинг борлиқ ҳақиқатга мансублиги кўрсаткичи сифатида кўриб чиқилади, урғу эса ички формага, фразеологик образга кўчади [6,152]. Фразеологик образлилик чуқур хосланган ва ижтимоий асослангандир.

Тадқиқ этиладиган ФБларни лингвокультурологик мослашиш категорияси контекстида кўриб чиқишга интилиш локал бўёқдорлик муаммосига мурожаатни талаб этади. Локал бўёқдорликнинг ФБ учун жоизлиги, уларнинг маънолари табиати сўзловчи билимининг асоси, инсоннинг амалий тажрибаси, ушбу тилда сўзловчининг маданий-тарихий



анъаналари билан чамбарчас боғланганлиги билан изоҳланади. ФБ ҳақидаги тил эгаларининг бирламчи аниқ маълумотлари таркибига унинг топонимлар, историзмлар, эквивалентсиз лексик бирликлар, шунингдек ФБ асосида ётган тарихий омиллар, миллий анъаналар, урф-одатлар, ФБнинг адабий манбалари ва бошқалар, бир сўз билан айтганда, ФБ билан боғлиқ бўлган ва уларнинг семантикаси ва тасвирийлигининг миллий ўзига хослигини асословчи барча экстралингвистик маълумотлар каби таркибий компонентлари маъноси киради. Экстралингвистик планда тадқиқ этилаётган ФБнинг социоллингвистик муқобилларини ойдинлаштириш, улар семантикаси ва тасвирийлигида миллий ўзига хосликларни ажратиш имконини беради. Локал бўёқдорликка эга бўлган ФБга куйидагилар мисол бўлади: *“to catch the Speaker’s eye” - (парламентда) сўзлаш рухсатини олмоқ*. Тил эгаари учун у Вестминистр ҳақидаги, унинг анъаналари ҳақидаги бирламчи маълумотни жонлантиради: *Қўйи Палата Спикерининг кундалик иш юритишида Австралия томонидан совға этилган клеслода ўтириб, раислик қилаётган Спикер. “The old lady from Threadneedle Street”* ФБи - инглиз банкининг лақаби бўёқдорликни белгиловчи бирламчи маълумотни нафақат инглиз банки жойлашган Треднидл кўчаси ҳақида билувчи тил ташувчилари билими, балки, унинг фаолияти, мамлакат иқтисодий ҳаётидаги ўрни ҳақидаги билимлар ҳам ташкил қилали. Ўзбек тилида *“ҳайвонлар шоҳи”-шер*. ШИКН ёрқин миллий-маданий компонентга эга. Бир тилдаги ШИКНни бошқа бир тилдагиси билан лексик жиҳатдан ўзаро ўлчаб бўлмаслиги уларнинг семантик жиҳатдан ягоналигини белгилайди. ФБда бундай компонентнинг мавжудлиги, унинг семантик жиҳатдан такрорланмас эканлигини, фақат бир мамлакат учунгина хос бўлиш эҳтимолини оширади. Инглиз ва ўзбек тилларининг чуқур таркибий фарқлари, уларнинг территориал (худудий) тафовути семантикада, компонент таркибида, ШИКН компонентли ФБнинг таркибий тузилишида ўз аксини топади. Тадқиқ этилаётган ФБ семантикасининг миллий ўзига хослиги сабаби уларнинг ижтимоий бўёқдорлиги бўлиб, бу бўёқдорлик инсонни турли-туман муносабатларида, меҳнат ва ижтимоий фаолиятида, аниқ ўлкашунослик фонида (асосида) ифодалашдан иборат. Локал бўёқдорлик борасида айнан инсонга, унинг турмуш тарзи ва у иштирок этадиган жамоа муносабатларига тегишли бўлган ФБ кенг қизиқиш касб этади. Шундай қилиб, тадқиқ этилаётган ФБ хусусиятларининг таркибий семантик жиҳатларининг ўзи ушбу тил бирликларини ўрганаётиб, биз уларнинг миллий - маданий компонентларини ҳисобга олишимиз шартлигидан гувоҳлик беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Верещагин Е.М., Костамаров В.Г. Лингвострановедческая теория слова.-М. Русский язык, 1980, с.169 - 175.
2. Верещагин Е.М., Костамаров В.Г., Язык и культура. Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. -2-ое изд., перераб. и доп. –М. 1976, с.112 .
3. E. Nida. Toward a science of translating. Leiden, 1964. /
4. John J. Gumperz. Types of linguistic communities. In «Readings in the Sociology of Language», J. A. Fishman (ed.), The Hague — Paris, 1968.
5. Мокиенко В.М. В глубь поговорки. Рассказы о происхождении крылатых слов и образных выражений.-М. Просвещение.-1975, с.174.
6. Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка. М., 1987, 14;
7. Потребня А.А. Из записок по русской грамматике: В 2-ух т. –М., 1958. /
8. Курбонова Г.С. Француз ва ўзбек тилларида ономастик компонентли фразеологизмларнинг миллий-лисоний хусусиятлари. Филол. фанл. бўйича фалс. докт. афтореф., Тошкент, 2019, с 11.



О‘ЗБЕК TILIGA MAMLAKATIMIZ SIYOSATINING E‘TIBORI

Do’squlova Qizlarxon Xolmat qizi

Namangan viloyati Pop tumani

2-sonli maktab o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tiliga mamlakatimizda berilayotgan e‘tibor, uning qonun va farmonlar bilan mustahkamlab qo‘yilishi, ularning amaldagi ijrosi, o‘zbek tilini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan ishlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, davlat tili, vatan, tarix, qaror, farmon, modda, til, davlat. Inson Vatan tushunchasini ilk bor ona tilida anglaydi, qalbiga tinchlik va xotirjamlik bag‘ishlovchi allani ana shu tilda eshitadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, til, millat, Vatan tushunchalari doimo yonma-yon. Aslida ham til millatning madaniyati va ma’naviyati, qadim tarixi hamda o‘sha millatga xos urf-odatlar majmuini yaqqol ifodalaydi.

Til – millatning eng birinchi belgisi. Uning ravnaqi shu xalq ravnaqi bilan chambarchas bog‘liq. Til, avvalo, milliy mustaqillik shahodatnomasi. Bosh qomusimizda ham davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yildi. Shu tariqa o‘zbek tili qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollardan biriga aylandi. Davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi esa tilimizning jamiyatdagi mavqeini yanada yuksaltirdi.

Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo‘lgan ona tilimiz o‘zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham Davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yildi. Prezident Sh.Mirziyoyev ham OAV dagi chiqishlarida va qabul qilingan farmonlarida, o‘zbek tilini yanada rivojlantirish, barcha sohalarida o‘zbek tilidan to‘laqonli foydalanish, lotin yozuviga asoslangan alifboni takomillashtirish va boshqa millat vakillarining til o‘rganishi uchun sharoitlar yaratishning muhimligini ta’kidlab o‘tmoqda.

Til to‘g‘risidagi qonun Konstitutsiya bilan mustahkamlanganidan keyin ona tilining mavqei yanada mustahkamlanib, rivojlanishi uchun qator Qonun va qarorlar qabul qilindi. Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni qabul qilindi. Farmonga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparatining tarkibiy bo‘linmasi hisoblangan “Davlat tilini rivojlantirish departamenti” tashkil qilindi. Bundan ko‘zlangan maqsad Davlat tilini rivojlantirish, davlat tilining amal qilishi bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha takliflar tayyorlash, o‘zbek tilining yozma matni me‘yor va qoidalarini ishlab chiqishdan iborat.

O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an‘ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta‘minlash, O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 20-oktyabr kuni “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni imzolandi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-fevralda “Rahbar kadrlar va mas‘ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarning davlat tilini bilish darajasini aniqlash va ularga davlat tilini bilish bo‘yicha daraja sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori tasdiqlandi. Qaror bilan 2021-yil 1-apreldan boshlab o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha bilimni baholashning milliy test tizimi asosida rahbar kadrlarning davlat tilida rasmiy ish yuritish hamda mas‘ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslar uchun davlat tilini bilish darajasini aniqlash va sertifikat berish tizimi joriy etildi. Bu test tizimi davlat tilida ish yuritish sohasining yuksak rivojiga xizmat qilishi kutilmoqda.

“O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonida davlat tilini rivojlantirish borasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash, davlat tilini rivojlantirish bo‘yicha dastur va «Yo‘l xaritalari»ni ishlab chiqish, «O‘zbek tili bayrami kuni»ni nishonlash bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirish, ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarni muomalaga kiritish kabi bir qancha vazifalarni amalga



oshirish belgilandi. Bu hujjat yurtimizda tilimiz rivoji, uni saqlash va rivojlantirish yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, dunyoda 50 milliondan ziyod aholi o‘zbek tilida so‘zlashadi. Bu ona tilimizning dunyodagi yirik tillardan biri ekanidan dalolat.

Davlat tili to‘g‘risidagi qonunning 1-moddasiga ko‘ra, O‘zbekistonda davlat tili o‘zbek tilidir. Shu bilan birga, O‘zbekistonda yashovchi turli millat va elatlar o‘z ona tilini qo‘llashlarini kafolatlash maqsadida Qonun o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi mamlakatdagi boshqa xalqlarning o‘z ona tilini qo‘llash huquqiga monelik qilmasligini ham bayon etgan. Qonunga ko‘ra, turmushda, shaxslararo va millatlararo muomalada fuqarolar o‘z xohishlariga ko‘ra istalgan tilda muloqot qilishlari mumkin. Demak, kundalik hayotda O‘zbekiston hududida yashovchi har bir shaxs o‘zi istagan tilda gapirishga haqqi bor. Masalan, kishilar o‘zaro muloqotda rus yoki tojik tilidan foydalanganlari uchun ularni hech kim kamsitishi mumkin emas. **Davlat tili to‘g‘risidagi qonun**ning 14-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston hududida yashovchi shaxslar davlat tashkilotlari va muassasalariga ariza va shikoyatlarini davlat tilida yoki boshqa tillarda topshirishlari mumkin. Demak, davlat organiga yozilgan ariza yoki shikoyatni faqat davlat tilida yozilmagani uchungina qabul qilmaslik mumkin emas. Qonunning 9-moddasiga ko‘ra, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida ish davlat tilida yuritiladi deb ko‘rsatib o‘tilgan.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari ham davlat tilida qabul qilinib, davlat tilida e‘lon qilinishi kerak. O‘zbek tilida qabul qilingan qonunlarning, davlat va mahalliy hokimiyat va boshqaruvi organlari hujjatlarining tarjimalari boshqa tillarda ham e‘lon qilinishi mumkin. Ushbu qoida O‘zbekiston hududida yashovchi, ammo davlat tilini bilmaydigan yoki yaxshi bilmaydigan fuqarolar manfaatlarini himoya qilish maqsadida qabul qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining OAV va Xalqaro minbarlardagi nutqlari.
3. lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.



WAYS TO LEARN ENGLISH FAST

Rahmonova Nodira Abduvoyid qizi

Mo‘minova Matluba Muhammadjon qizi

English language teachers of secondary school № 8,
Kosonsoy district, Namangan region

Annotation: Learning English is the demand of today. This article discusses easy methods of learning English and learning to speak English.

Key words: methods, language international language of business, pronunciation, Speech shadowing, lesson, direction.

English is without a doubt the universal language. This is not a question of linguistic imperialism, but rather the reality of living in a modern, globalized world. Not only is English the international language of business, diplomacy, and tourism, but it can also open your mind to an entirely new perspective on the world. There are many methods and directions in learning English. There are many innovations and techniques to improve English speaking. It is advisable to listen to more audio and video lessons in English to speak. English in our opinion, it is expedient if the study of English is carried out in the following directions

Learn New Words Every Day. Gleaning new words day in, day out is a good way to widen your vocabulary. Commit to a suitable target: it can be three daily words or it can be ten daily words. Even if you only have time to learn one new word per day, it is still worth trying. By learning one word every day, after one year you will have learned 365 new English words.

Write the number down to remind yourself frequently. If you have a learning partner, share it with her so that she can check on your progress. Some good resources for words are the news, songs and TV shows, depending on your daily habits. If you love listening to music, pay attention to the lyrics and take note of the words you do not know. Songs often contain a lot of useful vocabulary, phrases and expressions, therefore, they are great for learning English.

Improve your pronunciation. You might know a lot of words, but if you fail to say them correctly, you will not be understood. That seems like a waste of the time spent on remembering words, right? When using online dictionaries such as Macmillan and Merriam-Webster, make use of the little speaker symbol to check the pronunciation of any word that you are not sure about. There are English pronunciation tutorials on YouTube or podcasts like English Pronunciation Pod or American English Pronunciation to teach you the many aspects of American English pronunciation.

When you are ready for something more challenging, try out tongue twisters. Some examples are available here. Personally, I love the Fork handles sketch from the show “The Two Ronnies.” It might not be a typical example of everyday conversation, but it shows you the richness of spoken English. Besides, you will have a good laugh.

Speech shadowing. In a nutshell, this technique is about imitation. You listen to how a native speaker says something and try to copy it.

Pick your favorite video with subtitles. Make sure that it is something you enjoy watching because you will...

Listen to it many times. Listen to the video once and read the subtitles to get a good grasp of the general content and flow. While you are playing it again, complete the next step.

Imitate the narrator sentence by sentence. Play. Listen. Pause. Speak. Record (optional). Copy the speech pattern as best as you can. If you choose to record your practice, you can compare yours and the original. Or else, just listen to your own sound and be critical of the difference or similarity. Repeat this step until the end of the video.

Self-talk. Talk to yourself in English loudly. It can be anything from a suggestion like, “*Shall we go get a glass of water?*” or a reminder, “*I need to do a load of laundry today.*”

Alternatively, pick up a book and read a couple of pages out loud. This exercise might slow down your reading, but it will speed up your speaking skills.

You can also record yourself, listen to the recording and watch out for any wrong pronunciations. If it is possible, ask for feedback from a native speaker.

Think in English. If you already think in English, it takes less time to produce or respond in



everyday conversations. No translation needed! A good way to start rethinking is to keep a diary where you express your daily thoughts in English. It does not have to be perfect, it is more about getting out thoughts in English with less and less effort.

Retell a story in English. Take the challenge a step further by retelling a story. You retrace other people's line of thoughts in your own words. I would start with a familiar story from your culture. Your translation needs to convey not only the meaning of words but all rhetorical and cultural nuances. Alternatively, you can choose different words to retell a simple story in English. Start from the basics, reading something like a fairy tale or a fable. Either way will be beneficial to your English communication skills.

In my opinion, a variety of English-related curricula can be used to learn English. “Effortless” is a similar program that allows learners to speak English quickly and easily. And each new learners should use this program.

References

1. Kuylieva F. Ways to speak english quickly. T.,2020.
2. <https://reallifeglobal.com/world-citizen>
3. <https://www.fluentu.com/blog/english/how-to-improve-english-speaking-skills/>



FUNCTIONAL STYLES OF MODERN ENGLISH.

Rizaeva Mahina Dilshod qizi

Third-year student at
Tashkent State Pedagogical
University named after Nizami.

Annotation: *Functional Style is a system of interrelated language means serving a definite aim in communication. It is the coordination of the language means and stylistic devices which shapes the distinctive features of each style and not the language means or stylistic devices themselves.*

Each style, however, can be recognized by one or more leading features which are especially conspicuous. For instance the use of special terminology is a lexical characteristic of the style of scientific prose, and one by which it can easily be recognized.

A style of language can be defined as a system of coordinated, interrelated and inter-coordinated language means intended to full-fill a specific function of communication and aiming at a defined effect. Style of language is a historical category.

Linguistics, which gradually covered all areas of language functioning with its attention, also turned to expressive linguistic means in the broad sense of the word, to those phenomena of language that go beyond phonetics, lexicology and grammar and are determined by various conditions and purposes of use in speech. All these numerous and diverse phenomena are covered by the concept of style.

The palette of functional styles in modern English is extremely variegated and diverse, since the very concept of functional style is directly related to the concept of linguistic variability. Distinctive features and features of styles depend on social purposes, on combinations of language functions that prevail in the sphere of communication, in addition, the features of styles depend on the purpose of communication, for example, it can be

a message of information, an expression of emotions, or an incentive to action.

Functional style is a kind of literary language,

performing a certain function in communication [Solganik 2001: 169].

According to M. P. Brandes, the style has five functions (there is no consensus among scientists about the number of functions inherent in the language), therefore, he distinguishes five functional styles: official-business, scientific-technical, newspaper-journalistic,

literary and artistic, everyday life [Brandes 2001:15].

According to I.V. Arnold, functional styles are subsystems of a language, each of which has its own specific features in vocabulary and phraseology, in syntactic constructions, and sometimes in phonetics [Arnold 1990:247]. As the linguist notes, the most common division of functional styles is their division into two groups of styles: bookish and conversational. The first of them corresponds to a premeditated speech of communication with a wide range of people, and the second corresponds to an unprepared speech of everyday communication. Varieties of these two styles are four more sub-styles: poetry style, scientific style, newspaper style, conversational style. I.V. Arnold does not single out such an important style-forming area as official business correspondence, official documents, etc. All types of documents have a lot in common, and they cannot be attributed either to the newspaper style, nor to colloquial speech, nor, moreover, to poetry. [Arnold 1990: 149]

Another classification was proposed by V.V. Vinogradov. Based on the allocation of such functions of language as communication, communication and impact, he suggested that the function of communication is realized in everyday style, the function of communication - in everyday business, official documentary and scientific, the function of influence — in artistic and journalistic styles [Vinogradov 1963: 252].

I. R. Galperin identifies five functional styles: artistic style; journalistic style; newspaper style; style of official documents, or official style; style of scientific prose, or scientific style. The linguist believes that speech styles stand out as certain systems in the literary language primarily in connection with the purpose of the message. Each speech style has a more or less precise purpose, which determines its functioning and its linguistic features. So, for the newspaper style, the main goal is information, advertising; the purpose of the journalistic style is persuasion, a call to action,



an assessment of the facts of reality; the purpose of the business style is to establish conditions, restrictions and forms of further cooperation between two or more people; the purpose of the scientific prose style is to prove certain propositions, hypotheses, argumentation, etc. [Galperin 1958: 343].

Another linguist, G. Ya. Solganik, as well as I. R. Galperin, taking into account the functions of language, distinguishes the following functional styles: colloquial, scientific, official-business, newspaper-journalistic, artistic [Solganik 2001:169].

Thus, the functional styles of modern English are very diverse. And the classification of styles is carried out by different researchers in very different ways. As in Russian, the styles of speech in English differ not only in expressive means and techniques, but also in general specifics.

LIST OF SCIENTIFIC LITERATURE USED

- 1)Arnold, I. V. Stylistics of the modern English language. - M.: Enlightenment, 1990. — p. 169
- 2)Brandes, M. P., Provotorov, V. I. Pre-translation analysis of the text Publishing House: NVI-THESAURUS, 2001. — pp. 15-16
- 3)Vinogradov, V. V. Plot and style, M., 1963. — p. 252
- 4)Galperin, I. R. Essays on the stylistics of the English language - Moscow: Publishing House of Literature in Foreign Languages, 1958. — p. 343
- 5)Solganik, G. Ya. Stylistics of the text. — M.: Enlightenment, 2001. — P. 169



ИККИ ТИЛЛИ ИЛК ЎҚУВ ЛУҒАТЛАРНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ

Наширова Шахноза Буриевна,

Қарши давлат университети катта ўқитувчиси

Ўқув луғатлари бугунги кунда лексикографиянинг энг тез тараққий этиб бораётган жанри ҳисобланиб, ҳозирги ҳолатига келгунча қуйидаги босқичларни босиб ўтган: а) маъноси тушунарсиз бўлган сўзларнинг турли идеографик белгиларга асосланган рўйхатларига асосланган глосс, глоссарийлар; б) муайян алифбо тартибига асосланган сўзларнинг қисқача шарҳларига асосланган вокабулярий, азбуковниклар; в) луғат таркибига киритилган тушунирилиши қийин ёки нотаниш сўз ва ибораларни тез ва осон тушунтириш методикасига асосланган грамматик машқ ва топшириқлар илова қилинган луғат дарсликлар, луғат-грамматикалар.

Айни пайтда ўқув луғатлари қуйидаги уч муҳим белгиси билан характерланади: методик йўналгани, яъни ўқув мақсадида тузилгани, фойдаланувчисининг аниқлиги, таълимнинг муайян бўғинида таҳсил олувчилар учун мўлжаллангани; луғат сўзлиги муайян ўқув-методик талабга жавоб бериши – фойдаланувчи мансуб босқич давлат талаблари, таълим стандартлари ва ўқув дастур, дарсликларига асосланиши; нутқий фаолиятнинг барча кўринишларини қамраб олиши ва коммуникатив компетентликни оширишга мўлжаллангани билан фарқланади.

Ўқув лексикографиясига доир илмий манбаларда мазкур тоифага мансуб луғатларга хос асосий вазифалар сифатида ўқув (таълимий), маълумот бериш, тил ўргатиш, тиллар ва маданиятлараро алоқани мустаҳкамлаш, тизимлаштириш, ахборот бериш, меъёрлаштириш, тил лексик қатлами ва грамматик қурилишини илмий текшириш ва талқин этиш кабилар санаб ўтилади. Ушбу вазифалардан келиб чиқиб, ўқув луғати, аввало, икки гуруҳга бўлинади:

- 1) тил эгалари учун тузилган ўқув луғатлар;
- 2) хорижликлар учун тузилган икки ёки кўп тилли ўқув луғатлар.

Тил эгалари учун тузилган ўқув луғатлар, асосан, бир тилли бўлиб, тилнинг бой лексик-семантик имкониятлари, илмий – фонетик, лексик, орфографик, орфоэпик, морфологик, синтактик меъёрларини ўргатиш учун хизмат қилади. Шунга кўра тўғри ёзув, тўғри талаффуз луғатлари, синонимлар, антонимлар, омонимлар, паронимлар луғати, грамматик луғатлар, сўзлар бирикувчанлиги ўқув луғатлари фарқланади. Таржима луғатларининг бугунги авлоди икки ёки бир неча тилли бўлиши мумкин. Икки тилли ёки кўп тилли луғатлар таржима луғатларининг кўриниши, баъзан икки тилли луғат, кўп тилли луғат, таржима луғати синоним сифатида ҳам ишлатилади. Уларнинг терминологик маъносида ҳам бу акс этган: ИККИ ТИЛЛИ ЛУҒАТ. Бир тилнинг луғавий бирликлари бошқа тилга таржима қилиб бериладиган луғат. Мас, русча-ўзбекча луғат, ўзбекча-русча луғат. Қ. Таржима луғати. Қиёс. Бир тилли луғат [1].

ТАРЖИМА ЛУҒАТИ. Бир тилнинг (таржима қилинаётган тилнинг) луғавий бирлигига бошқа тилнинг маъно жиҳатдан эквиваленти бериладиган, ўзга тилнинг луғавий бирлиги таржима этиладиган луғат. Бундай луғатлар икки тилли ёки кўп тилли бўлиши мумкин: *русча-ўзбекча луғат*, *инглизча-русча-ўзбекча луғат* ва б [1]. Ўзбек ўқув луғатчилигида икки тилли луғат энг кўп тарқалган луғат тури бўлиб, айни пайтда инглиз, рус, араб, форс, немис, француз тиллари негизида яратилган бир қанча икки тилли луғатларни санаб ўтиш мумкин. Бошқа луғат турларидан фарқланиб муайян тил бўйича икки тилли луғатларнинг кўплаб яратилиши луғат яратилган даврнинг ижтимоий-сиёсий, маданий, иқтисодий эҳтиёжларига боғлиқ бўлади. Аниқроғи, XI-XIII асрлар оралиғида яратилган Маҳмуд Кошғарийнинг илк туркий икки тилли туркча-арабча изоҳли луғати – “Девону луғотит турк” (XI аср), Маҳмуд Замахшарийнинг тўрт тилли – арабча-форсча-ўзбекча-мўғулча луғати – “Мукаддимат ул-адаб” (XII аср), туркча-арабча, мўғулча-форсча ва арабча-мўғулча сўзликлардан тузилган “Китоби-мажму-таржумони турки ва ажами ва муғали”, туркча-арабча грамматик луғат “Китоб ат-тухфа аз-закияту фи-л-луғат-ат-туркия” каби луғатларнинг юзага келиши араб халифалигининг расмий тили араб тилини, ўрта асрларда яратилган Толе Имони Ҳиравийнинг чиғатойча-форсча “Бадое ул-луғат” (XV аср), чиғатойча-туркча изоҳли луғат “Абушқа” (XVI аср), Муҳаммад Ёқуб Чингйининг ўзбекча-форсча “Келурнома” луғати (XVII аср), Муҳаммад Ризо Ҳоксорнинг арабча-форсча, ўзбекча изоҳли “Мунтахаб ул-луғот”



луғати (XVIII аср), Мирзо Махдийхоннинг чиғатойча-форсча “Санглоҳ” луғати (XVIII аср), Сулаймон Бухорийнинг чиғатойча-туркча “Луғати чиғатой ва турки усмоний” (XIX аср) каби кўп тилли луғатлар форс-тожик тилини ўргатиш ва бошқа тил эгаларининг туркий тилни ўрганишга бўлган эҳтиёжини қондириш зарурати билан юзага келган эди. XIX аср охириларидан рус тили, кейинчалик немис, француз тили, XX асрнинг иккинчи яримларидан инглиз тилини ўрганиш зарурати шу тиллар негизида яратилган икки тилли луғатчилик тараққиётига замин ҳозирлаган. Б.Баҳриддинова ўзбек ўқув луғатчилиги тараққиётининг асосий босқичларини ажратар экан, ҳар бир босқичга мансуб ўқув луғатларини қуйидагича гуруҳлайди:

1. X-XIV асрлар. Араб лексикографияси анъаналари асосида яратилган ва ўз даврида туркий тилли аҳолининг араб тили, арабларнинг туркий тилни ўрганиши учун хизмат қилган арабча-туркча, туркча-арабча икки тилли луғат-грамматикалар;

2. XV-XVII асрлар. Ўзбек ва форс-тожик тилларида ёзилган бадий, илмий-маърифий асарлар, хусусан, Алишер Навоий асарлари бўйича яратилган форсча-туркча, туркча-форсча икки тилли луғат-грамматикалар;

3. XIX-XX асрлар. Собиқ шўро даврида яратилган русча-ўзбекча, ўзбекча-русча икки тилли ва адабий тил меъёрларини ўргатиш мақсадида яратилган ўқув луғатлар;

4. XXI аср бошларидан ҳозиргача бўлган давр. Истиклол йилларида яратилган янги авлод ўқув луғатлари [2]. Эътибор қилинса, ҳар тўрт даврга (истиклол даври нисбатан луғат турларининг кўпайгани билан характерланади) мансуб луғатларнинг ҳаммаси икки тилли ўқув луғатлар ҳисобланиб, турли даврларда турли мафкураларнинг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маданий эҳтиёжларини қондириш учун хизмат қилган.

Ўтган асрда рус тилини ўрганиш зарурати нафақат ўзбек тили, балки собиқ шўро давлати тасарруфидаги барча миллий тилларда рус тили негизидаги кўплаб икки тилли ўқув луғатларининг тузилишига сабаб бўлди. Бу даврда фойдаланувчининг ёши, таълимнинг қайси босқичида эканига кўра русча-ўзбекча луғатларнинг *катта*, *ўртача*, *кичик* каби турлари фарқланган. **Катта** русча-ўзбекча луғат академик луғат ҳам юритилиб, унга 1950-1956 йилларда чоп этилган олти жилдли “Русча-ўзбекча луғат” мисол қилиб келтириш мумкин. Луғат 72 минг сўзликни ўз ичига олган. Луғатнинг олтинчи жилди илова типда бўлиб, унда рус тилининг қисқача грамматикаси берилган. Луғатда ўша даврда муомалада бўлган фаол ва нофаол русча сўзлар, барқарор бирикмалар қамраб олинган ва изоҳланган. **Ўртача** русча-ўзбекча луғатларнинг яратилишига жамиятда луғатларга эҳтиёж туғдирадиган турли соҳалар ривожини билан боғлиқ бўлган. Унинг илк намуналари сифатида А.Зоҳирийнинг “Русча-ўзбекча мукамал луғат” (1927)и, С.Раҳмонкуловнинг икки жилдли “Русча-ўзбекча луғати” (1927-28), С.Раҳматий ва А.Қодирийнинг “Русча-ўзбекча сўзлик” (1934)и ва бошқаларни кўрсатиш мумкин. **Кичик** русча-ўзбекча луғат ўртача ва катта луғатлардан бироз олдинроқ – Чор Россиясининг Ўрта Осиёга юриши бошланган даврларда тузилган. Ушбу луғатлар соф ўқув характерида бўлиб, уларнинг номланиши ҳам бунга ишора қилиб турган. Масалан, А.Старчевскийнинг 1878 йилда нашр этилган “Рус кишисининг Ўрта Осиёдаги йўлдоши” (“Спутник русского человека в Средней Азии”), В.П.Наливкин ва Н.Наливкинанинг 1884 йилда нашрдан чиққан “Русча-сартча ва сартча-русча луғат”и (“Русско-сартовский и сартовско-русский словарь”) ва бошқ.

Адабиётлар:

1. Ҳожиёв А.П. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б. 43. – 159 б.

2. Баҳриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол.фан... доктори (DSc) дисс. – Самарқанд. 2020., –252 б.; – Б.12



ПУНКТУАЦИЯДА УМУМИЙ ВА ХУСУСИЙ МЕЪЁРЛАР

Тўраева Дилбар Мейлиевна,

Қарши давлат университети катта ўқитувчиси
dilbarturayeva270@gmail.com

Бу ўзбек тилшунослигида айна пайтда сунъий интеллект тили деб тан олинган, дунё тиллари ичида истеъмол доираси кенг бўлган тиллар пунктуацион тизими ва ўзбек пунктуациясини боғловчи умумий жиҳатлар, шунингдек, уларнинг мустақил тараққиёти билан боғлиқ назарий ва амалий жиҳатларини ўзбек ёзуви ва пунктуацияга тарихан туташ бўлган рус, инглиз пунктуацияси билан умумий, биргаликдаги тараққиёти ҳамда миллий-этник тараққиёти билан боғлиқ хусусий жиҳатларини қиёсий ўрганиш заруратини юзага келтирди. Тиниш белгиларининг *умумий меъёрлари* деганда қандай меъёрлар назарда тутилади? Пунктуациянинг миллий тараққиёти нималарда акс этади? Миллий пунктуацион меъёрларга асосланган матнлар таржимаси жараёнида қандай муаммоларга дуч келинади?

Бошқа тилларда бўлгани каби ўзбек тилшунослигида ҳам меъёршунослик мактаби мавжуд бўлиб, унда тилнинг лексик, фразеологик, имловий, услубий ва бошқа меъёрлари атрофлича тадқиқ этилган. Хусусан, Э.Бегматов ва А.Маматовлар “Адабий норма назарияси” китобида лисоний норманинг жаҳон тилшунослиги – чех (Прага тилшунослик мактаби), инглиз, рус, немис тилшуносликлари ва туркийшуносликда ўрганилишига диққат қаратар экан, умумий ва хусусий меъёрларга ҳам тўхталади. Умумий меъёр деганда барча тилларга, ҳеч бўлмаганда қардош тилларга тегишли меъёрлар, хусусий меъёрлар деганда муайян тилга тегишли меъёрлар, яъни умуман тиллар ва миллий тил доирасида амал қиладиган қонуниятлар назарда тутилади [1; 75-78]. А.Маматовнинг “Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари” деб номланган монографиясида ҳам умумий ва хусусий меъёрларга шу нуқтаи назардан ёндашилади [2]. Таниқли меъёршунос С.А.Каримов эса умумий ва хусусий меъёрга тил ва нутқ дихотомияси нуқтаи назаридан қарайди. У умумий тилшунослик қарашлари нуқтаи назаридан тиллардаги маълум қоидаларгина бир-бирига мос келиши, тил элементларининг барча тиллар учун умумий бўлган кўринишлари ҳақида фақат қардош тиллар доирасидагина гап бўлиши мумкинлиги, шунинг учун умумий меъёр тушунчасини бир тил доирасида изоҳлаш мақсадга мувофиқлиги, ўзбек тили меъёрларини туркий тиллар меъёрларига нисбатан олиб қараб, уни хусусий дейиш шартли эканини таъкидлайди: “Умумий меъёр тил воситалари ва имкониятлари тизимида маълум тилда сўзлашувчи омма учун тушунарли бўлган, жамоа кўникмасига асос бўлган воситалар йиғиндиси” [3], “Хусусий меъёр умумий меъёрнинг нутқ типлари ва шаклларидаги ҳамда тилнинг шаклларидаги конкрет кўриниши”. Албатта, С.Каримов бу ўринда, асосан, лексик ва фразеологик меъёрларни назарда тутди. Гап пунктуацион меъёрлар ҳақида кетар экан, масалага Э.Бегматов ва А.Маматовлар нуқтаи назаридан ёндашиш талаб этилади. Маълумки, илк тиниш белгиларининг пайдо бўлишига, асосан, нутқнинг зарурий бўлаклари – қисмларини ажратиш эҳтиёжи сабаб бўлган ва асосий вазифаси ҳам шундан иборат бўлган. Шунинг учун ишнинг аввалги бобида кўриб ўтилганидек, тиниш белгилари тарихининг илк даври *ажратиш босқичи* деб номланган. Кейинги босқичларда гарчи тиниш белгилари функционал жиҳатдан анча тараққий этган – оғзаки нутққа хос бўлган синтактик-семантик, стилистик характердаги хусусиятлар ва маъно нозикликларини ёзма нутққа тўлиғича акс эттиришнинг муҳим воситасига айланган бўлса-да, ҳануз назарий пунктуация уларнинг вазифасига кўра икки гуруҳини ажратади: 1) ажратиш вазифасини бажарувчи тиниш белгилари; 2) алаш вазифасини бажарувчи белгилар.

Замонавий пунктуация тиниш белгиларини қўллашнинг **умумий меъёрлари сифатида пунктуация тараққиётининг айнан ана шу илк босқичларида амалда бўлган ва аксарият ёзувлар учун ҳануз амал қилиб келаётган қоида-қонуниятларни** тан олади. Ушбу қоидалар барқарор, турғун бўлиб, деярли ўзгармайди. Замонавий инглиз тилидаги тиниш белгилари тизимининг назарий ва амалий жиҳатларини тадқиқ қилган Л.У.Арапиева ҳар қандай тилнинг пунктуациясини ўрганишда тиниш белгиларининг икки асосий функциясига диққат қаратиш лозимлигини таъкидлайди: 1) ёзувда синтактик муносабатларни акс эттириш билан боғлиқ аввалдан маълум бўлган умумий ўхшаш (адекват), барқарор ва аниқ функциялари; 2) ёзма нутқнинг муайян кўринишларида учрайдиган, аммо ҳали кенг



ўрганилмаган, фақат шу тилга мансуб бўлган индивидуал (оқказионал) функциялари.

Ушбу таснифда тиниш белгиларининг “аввалдан маълум бўлган умумий ўхшаш (адекват), барқарор ва аниқ функциялари” – бу биз назарда тутатган **жаҳоннинг аксарият ёзувлари учун амал қиладиган умумий меъёрларга**, “фақат шу тилга мансуб бўлган услубий функциялари” эса тиниш белгилари тараққиётининг муайян тил, ёзув билан боғлиқ **миллий тараққиёти – хусусий қўлланишларига** алоқадор. Л.У.Арапиева ҳам тиниш белгиларининг бу икки жиҳати пунктуациянинг умумий илмий асослари ва миллий тараққиёти билан боғлиқ хусусий илмий меъёрларига алоқадорлигига урғу беради ва ўз фикрларига Л.В.Шчербанинг таснифида тиниш белгиларини функционал хослигига кўра “французча”, “немисча” каби турларга ажратилишини асос қилиб келтиради. Бу билан у ёки бу тиниш белгиларининг миллий тараққиётида синтаксис ёки семантикага нисбатан устунлик берилишига диққат қаратади.

Ўзбекпунктуациясиназарийасосларинингшаклланишидаҳам, амалдақўлланабошлашида ҳам рус пунктуацияси, кирилл ёзувининг таъсири катта бўлади. Аниқроғи, ҳозирги ўзбек пунктуацияси рус пунктуацияси негизида шаклланган. Қолаверса, кенг тарқалган тиллар учун танланган мезонлар шу тил негизида илмий меъёрларини шакллантирган бошқа тиллар учун ҳам бирдек амал қиладди. Масалан, ҳозирги пунктуацион тизимнинг аксарият тиниш белгилари, жумладан, сўроқ, ундов, қўштирноқ, кўп нуқта кабилар ўзбек тилига рус тили орқали ўзлашган. Шунингдек, рус пунктуацияси илмий-назарий жиҳатдан анча ишланган ва системалашган бўлганлиги учун ўзбек тилидаги пунктуация қоидаларининг айримлари ҳам рус пунктуацияси қоидаларига асосланиб тузилган. Бу тиниш белгиларининг ўзбек тилида пайдо бўлиш тарихи билан боғлиқ. Маълумки, XIX асрнинг охири чорагидан Чор Россиясининг Марказий Осиёга кириб келиши билан боғлиқ ҳолда матбаачилик тараққий эта бошлайди. “... дастлаб тиниш белгилари газета ва журналларда кам миқдорда қўлланган, уларнинг вазифаси ҳам конкрет бўлмаган; кейинчалик тиниш белгиларининг вақтли матбуотда қўлланиш доираси кенгайган ва ишлатилиши муайян системага кирган”. Бу даврда европа ёзувларига хос амалдаги тиниш белгилари тизимининг шаклланиш тарихини таҳлил қилишда ўша даврнинг асосий расмий нашри, ўзбек вақтли матбуотининг қалдирғочи 1870 йил 28 апрелдан 1917 йилнинг бошларига қадар – салкам ярим аср давомида мунтазам чоп этилган “Туркистон вилоятининг газети” манба бўлиб хизмат қиладди. Албатта, ўзбек матбуотида, аниқроғи, “Туркистон вилоятининг газети”да тиниш белгиларининг барчаси бир вақтда қўллана бошламаган. Заруратга кўра дастлаб тире (1871 йил, 20-сонидан бошлаб), кейин кўп нуқта (1872 йил 18-сондан), қавс (1873 йил 6-сон), нуқта дастлаб интервал – бўш жой кўринишида, кейинчалик, аниқроғи, 1875 йилдан безак белгиси – юлдузча кўринишидаги шаклларда, 1881 йилдан ҳозирги шаклида қўллана бошлаган. Қўштирноқ 1881 йилдан, сўроқ белгиси, ундов белгиси, вергул, икки нуқта ва нуқтали вергул 1901 йилдан газета саҳифаларида пайдо бўлган. Ўз-ўзидан, уларнинг қўлланилиши ҳам рус тили учун амалда бўлган меъёрларга асосланган. Зеро, Б.Баҳриддинова таъкидлаб ўтганидек, “қоидалаштиришда кўп ўринларда пунктуациянинг умумий меъёрлари (пунктуацион калка)дан келиб чиқилган”. Шу сабабдан ўзбек ва рус пунктуацион тизимида ғоявий-этниқ хусусиятларга қараганда умумий ўзига хосликлар устунлик қиладди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси (Адабий норманинг типлари). 2-қисм. – Тошкент: Наврўз, 1998. – 134 б. – Б. 75-78
2. Маматов А. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент: Фан, 1991.
3. Каримов С.А. Тил таълими ва меъёр. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – 267 б. – Б.248
4. Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. –Тошкент: Фан, 1974. –68 б. – Б.14.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 7-ҚИСМ

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович

Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович

Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2023

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000